

UDK: 81751

## MAQOLLARDA NUTQIY AKT TADQIQI

*Bibish Jo'rayeva Muhsinovna*

*Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi, f.f.d., dots*

*Umida Ibrohim qizi Yaxyoyeva*

*Buxoro davlat universiteti doktoranti*

[Umidayaxyoyeva02@gmail.com](mailto:Umidayaxyoyeva02@gmail.com)

**ANNOTATSIYA:** *Xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan, folklor namunasi, hajman qisqa va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmat, chuqur mazmun, muayyan aniq shaklga ega maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan bo'ladi. Ushbu maqolada jahon tilshunosligida maqollarning nutqiy akt jihatidan o'rganilishi tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *nutq akti, reprezentativ, ekspressiv, komissiyaviy, direktiv*

**ABSTRACT:** *Life experiences, attitudes to society, history, mental state, ethical and aesthetic feelings, and positive qualities of the ancestors are embodied in proverbs that are a result of folk wisdom, a sample of folklore, short and logically complete meaningful wisdom, deep content, and a specific form. This article analyzes the study of proverbs in terms of speech acts in world linguistics.*

**Key words:** *speech act, representative, expressive, commission, directive*

### KIRISH

Maqol so'zlovchining kommunikativ niyatining og'zaki ifodasi sifatida u tomonidan *maslahat, tavsiyalar, maqtov, yaxshi tilaklar, qo'rquv, masxara*



*qilish, haqorat qilish, qayg'u, ogohlantirish, tanqid qilish* kabi bir qancha munosabatlarni ifodalaydi.

“Ba’zi maqollar buyruqni ifodalaydi, boshqalari ko‘pincha didaktik ruhda bo‘ladi, boshqalari esa kontekstda tinglovchini harakatga undaydi<sup>1</sup>. Odamlar bir-biri bilan muloqot qilganda, turli xil maqsadlarda maqollardan foydalanadilar. Maqollar maslahat berish, tanqid qilish, tahdid qilish, so‘rash va boshqa ko‘plab kommunikativ vazifalarni bajaradi. Maqolning ta’sirchan harakatini, ta’sirchan kuchini aniqlash uchun kontekstni hisobga olish kerak. X. Yan ta’kidlaganidek: “Ma’nolarni o‘rganishda kontekstlar e’tiborga olinsa, demak, pragmatika vujudga keladi”<sup>2</sup>. G.Leech pragmatikani: “Nutq vaziyatlari bilan bog‘liq holda ma’noni o‘rganish”<sup>3</sup>, — deb ta’riflagan. Ko‘rinadiki, pragmatikada kontekst gapning ma’nosini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqollarda nutqiy aktlarni o‘rganish L.Daironing so‘nggi tadqiqotida<sup>4</sup> kengroq keltirilgan bo‘lib, unda u o‘ttizga yaqin yoruba maqollarini nutq akti jihatidan tekshiradi. U shunday xulosaga keladi: “Nutq qanday shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar, har qanday gap nutqiy harakatdir; shuning uchun maqol ham muayyan harakatlarni bajarish uchun ishlatiladi”<sup>5</sup>. Ushbu izlanish natijasida maqollar *hukm qilish, dalillarni ifodalash, ogohlantirish, nasihat qilish, maslahat berish, ko‘rsatma berish* kabi turli vaziyatlarda qo‘llanilishi aniqlandi. Lawal, Ajayi va Raji<sup>6</sup> singari tadqiqotchilar uning ishini davom ettirgan holda boshqa yoruba

<sup>1</sup> Mieder, W. (1996). Proverbs. In J. H. Brunvand (Ed.), American folklore: An encyclopedia (pp.597-601). New York: Norton.

<sup>2</sup> Yan, X. (2006). A Study on Speech Acts in the Use of English Proverbs. M. A. Thesis. Anhui University. China

<sup>3</sup> Leech, G. (1983). Principles of Pragmatics. Harlow: Longman.

<sup>4</sup> Dairo, L. A speech act analysis of selected yoruba proverbs. Journal of Cultural Studies.2010. 8, 3: 431–442.

<sup>5</sup> Dairo, L. A speech act analysis of selected yoruba proverbs. Journal of Cultural Studies.2010. 8, 3: 431–442.

<sup>6</sup> Lawal, Ajai va Raji. . Yoruba maqollarining tanlangan juftliklarini pragmatik tadqiq qilish. Pragmatika jurnali, 27, 635-52.1996



maqollarini nutq akti jihatdan o'rganishgan. A. Jombadi va J. Juliana<sup>7</sup> Yoruba maqollarida J. Searle nazariyasi qanchalik mos kelishini o'rganishadi. Tadqiqot maqsadida ular 25 ta maqolni tanlab tahlil qiladi. Qolaversa, bu maqollarni to'qqiz jihatga, ya'ni ijtimoiy munosabatlarga, adolat va axloqqa, dinga, falsafaga, hayot va mamotga, go'zallikka, e'tiqodga, dehqonchilikka qarab tasniflaydilar. Bu kabi tadqiqotchilardan biri Oday Muhammad Alshorafat<sup>8</sup> Iordaniyadagi badaviy maqollarida nutqiy aktini o'rgangan. O'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, badaviy maqollari, asosan, *so'kish, tahdid qilish, maslahat berish, tanqid qilish* kabi harakatlarni bajaradi. A. Ali va S. Makhlef<sup>9</sup> ingliz va arab maqollarida nutqiy harakatlarni tahlil qilish uchun tadqiqot olib boradi. Ular ingliz va arab maqollaridagi tinglovchilar uchun aniq bo'lmagan bilvosita ma'nolarni o'rganishdi. Ular J. Searlning nutqiy harakat modeliga amal qilgan holda 59 ta ingliz va arab maqollarini tahlil qilish bilan cheklandilar. Ularning o'rganishi shuni ko'rsatdiki, nutqiy harakatlarning eng ko'p uchraydigan turlari "komissiyaviy" va "vakillik" nutqiy harakat turlari hisoblanadi. Qolaversa, ingliz va arab maqollarida birlamchi ogohlantirish harakati, ikkinchi o'rinda ta'kidlovchi aktlar, uchinchi o'rinda maslahat beruvchi harakatlar turadi. Shuningdek, tahdid qilish, so'rash va maslahat kabi boshqa aktlar pastroq foizni tashkil qiladi. A. Yan<sup>10</sup> ingliz maqollarini nutq akti jihatidan o'rganadi. Tadqiqotchi maqollarning aksariyati "yo'naltiruvchi", "ifodali" va "vakillik" ekanligini aniqlaydi. G. Hor va H. Jamal<sup>11</sup> nutqiy aktlarni Livan diniy maqollari misolida o'rganishdi. Ularning tadqiqoti J. Searl nazariyasi Livan diniy maqollarida qanchalik to'g'ri kelishiga qaratilgan. Ular Livan diniy maqollarida "vakillar" (43%) va "komissiyalar" (30%)ni tashkil etishni hamda deklarativ

<sup>7</sup> Jombadi, A & Juliana, J. (2014). A Pragmatic Study of Yoruba Proverbs in English. International Journal of Novel Research in Education and Learning, 1(2), 10-19

<sup>8</sup> Alshorafat, O. (2016). Speech Acts of NorthEastern Badia's Proverbs. AM Thesis. Al-alBayet University. Jordan

<sup>9</sup> Ali, A & Makhlef, S. (2011). A Speech Act Analysis of Some English and Arabic Proverbs. Tikrit University Journal for Humanities, 18(4), 44- 66ik

<sup>10</sup> Yan, X. A Study on Speech Acts in the Use of English Proverbs. M. A. Thesis. Anhui University. China

<sup>11</sup> Hor, G & Jamal, H. (2007). A Test of Searle's Speech Act Theory: A case Study of Lebanese Religious Proverbs. International Journal of Humanities, 5(4), 31-42.



nutq aktlari umuman qo'llanilmasligini aniqlaydilar. A. Lutfi<sup>12</sup> ob-havo maqollarida nutqiy harakatlarni qo'llaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ob-havo maqollari doimo bilvosita qo'llaniladi. Ular *ogohlantirish, maslahat berish, nasihat qilish, da'vat qilish, bashorat qilishni* ifodalaydi.

Abdul Jabbar<sup>13</sup> nutq akti nazariyasini Amerika ingliz maqollariga tadbiiq etadi. Tadqiqotda asosiy e'tibor nasihat akti va uning o'ziga xos semantik ma'nolarini ochishga qaratilgan. Tadqiqot Garri Kollining kitobi asosida amalga oshiriladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, qayd etilgan eng yuqori ball taklif nutq akti, keyingi o'rinda tavsiya nutq akti turadi. Maslahat nutq aktiga ball berilmaydi. Boshqa barcha nutq harakatlari teng baholanadi. Ayeni Vole Soyinka "Arslon va javohir" asaridagi Nigeriya maqollarini pragmatik tahlil qiladi. Tadqiqotning maqsadi: birinchidan, maqollarning umumiy ma'nosi asardan tashqarida qanday mazmun anglatishini o'rganish, ikkinchidan, Nigeriya madaniyatida maqollarning ahamiyatini o'rganish edi. Alshorafat shimoliy-sharqiy Badiya maqollarida nutq aktini tekshiradi va ularda uchraydigan illokatsion harakatlarning turlarini ajratib ko'rsatish hamda bu maqollarning pragmatik vazifalarini aniqlash ishlarini olib boradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bu maqollarda uch xil keng tarqalgan nutqiy harakatlar mavjud. Ular ekspressiv (45%), direktivalar (30%) va vakillar (25%). U ushbu maqollarda ta'na qilish, ayblash, qoralash, maslahat berish, shikoyat qilish, masxara qilish, tanqid qilish, haqorat qilish, maqtash va tasdiqlash kabi o'nta mavzuviiy guruhni pragmatik o'rganib chiqdi. Shuningdek, u badaviy bo'lmaganlar nima uchun bu maqollarni tushunolmasligi va izohlay olmasligini tushuntirishga harakat qiladi: birinchidan, o'zgalar maqollarning yashirin ma'nosini tushunmaslik (leksik bo'shliq), ikkinchidan, ularda pragmatik bilim yetishmaydi, uchinchidan, maqollarning aksariyati faqat badaviylar madaniyati bilan bog'liq bo'lib, madaniyatlararo farqlarning mavjudligidir. Tadqiqot natijasi sifatida maqollar *haqorat qilish, qo'rqitish, g'azablantirish, rag'batlantirish, ishontirish* kabi

<sup>12</sup> Lutfi, A.. Weather Proverbs and Speech Acts. Journal of Collage of Education,2(19), 296- 304

<sup>13</sup> Abdul Jabbar, L. A Linguistic Analysis of the Speech Act of Advice in American English Proverbs. Journal of College of Education for Women,19(1),116-128.



nutq aktlarini bajarishi yoki tinglovchini biror harakatni amalga oshirishga undashi mumkinligi aniqlandi.

### **NATIJARLAR**

Yuqoridagi tadqiqotlar bilan tanishish jarayonida shuni qayd etish mumkinki, ularda maqol va matallar, ba'zan hikmatli so'zlar aralash tarzda keltirilgan, ya'ni matallar va aforizmlar alohida shaklda nutq akti jihatidan o'rganilmagan. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, barqaror birikmalarning keyingi turi frazeologizmlarda nutq akti borasida katta ilmiy ishlar deyarli mavjud bo'lmasada, maqola shaklidagi kichik izlanishlar qilingan. Ushbu maqolada P.G.Wodexausning "Kichik nugget" romanidan "masxara qilmoq, O'.Hoshimovning "Nur borki, soya bor" romanidan "baxti qaro" va kabi iboralar nutq akti jihatidan tahlilga tortilgan. Shu kabi maqolalaradan birida<sup>14</sup> Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasida "Xushvaqt bo'lmoq" iborasi hamda O'. Hoshimovning "Nur borki, soya bor" romanidan "omadi kelmoq" iborasi ushbu jihatdan tahlilga tortilgan.

### **XULOSA**

Xulosa qiladigan bo'lsak, tilda mavjud bo'lgan turg'un so'z birikmalari ( maqollar, matallar, aforizmlar ) shu xalqning butun tarixini, hayot yo'lini aks ettiradi, shuning uchun ham insonlar har qanday vaziyatda ularga tez-tez murojaat etadilar. Turg'un so'z birikmalari har qanday nutqdagi birlikning shirali va ta'sirchan bo'lishida muqobil uslubiy vosita rolini bajaradi. Shunday ekan, ularni nutq akti jihatidan keng o'rganish muhim masalardan biri sanaladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

#### **Kitoblar**

<sup>14</sup> Jumaqulova Shaxnoza Quدرات qizi. PRAGMATIKADA NUTQIY AKT TASVIRI. «Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya.2022



1. Hakimov M. “O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini”.Filolog.Fan.Dok...diss.-Toshkent,2001.
2. Norrick N. R. How proverbs mean. Semantic studies in English proverbs. – New York: Mouton, 1985
- 3.Safarov Sh.Pragmalingvistika.-Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008

#### **Jurnallar**

1. Alshorafat, O. (2016). Speech Acts of NorthEastern Badia's Proverbs. AM Thesis. Al-alBayet University. Jordan.
2. Ali, A & Makhlef, A Speech Act Analysis of Some English and Arabic Proverbs. Tikrit University Journal for Humanities.
- 3.Hor, G & Jamal, H. (2007). A Test of Searle's Speech Act Theory: A case Study of Lebanese Religious Proverbs. International Journal of Humanities.
- 4.Jombadi, A & Juliana, J. (2014). A Pragmatic Study of Yoruba Proverbs in English. International Journal of Novel Research in Education and Learning.

